

ERI KALIT NIMA, UNI QANDAY OLISH MUMKIN

Xusanbayev Elmurod Ubaydulla o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi
talabasi

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida ERI tushunchasi paydo bo'ldi. ERI o'zi nima?

Elektron raqamli imzo yoki ERI imzoning ma'lum bir tashkilot yoki shaxsga tegishli ekanligini kafolatlash imkonini beruvchi jismoniy imzoning alternativ varianti hisoblanadi.


ERI elektron raqamli imzo orqali insonlar o'zlarining hujjatli ishlarini masofadan turib ishlarini boshqarsa elektron raqamli imzo orqali chekish orqali ruxsat berishlari mumkin bo'ladi. Bugungi kunda bunday ERI kalitlari ommalashib bormoqda asosan hisob kitob olib boruvchi buhgalter, yuridik va jismoniy shahslar ham o'z ERI kalitlaridan foydalanishni boshlashdi. ERI kalitning qulayliklardan yana biri jismoniy shahslar ham oz ishlarini turli hil idoralarga bormasdan turib ham online holda ERI kalit orqali ham o'z ishlarini yakunlashlari mumkin.

e-imzo.uz saytida ERI sertifikatini masofadan turib qanday olish bo'yicha qo'llanmani taqdim etadi.


ERI (elektron raqamli imzo) - imzoning yopiq kalitini qo'llagan holda axborotning kriptografik o'zgarishi natijasida olingan va imzoning shakllanish vaqtidan boshlab elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlovchi hamda imzo kaliti sertifikatini imzo egasiga taalluqliligini tekshiruvchi elektron hujjatning rekviziti hisoblanadi.

Yuridik yoki jismoniy shahslar Davlat soliq qo'mitasi ro'yxatdan o'tkazish markazining davlat xizmatlari rasmiy veb-sayti e-imzo.uz dan foydalangan holda ERI olishi mumkin.

Birinchi qadam. Elektron-so'rovnoma shakli to'ldiriladi.



Elektron-so'rovнома shaklida “Yuridik shaxs” yoki “Jismoniy shaxs” maqomi tanlanadi.



Soliq to'lovchi (jismoniy shaxs)larning identifikatsiya raqamini (STIR) berish bekor qilinishi munosabati bilan soliq to'lovchilarni soliq organlarida ro'yxatga olish JSHSHIR — jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami orqali amalga oshiriladi.

Ilova qilinayotgan faylda murojaatchi yuz qiyofasi “anfas” shaklda va tiniq ko‘ringan hamda pasportning asosiy sahifasi barcha simvollarini o‘qib bo‘ladigan sifatda bo‘lishi shart. Foto hajmi 5 MB dan oshmasligi lozim. Barcha qatorlar to‘ldirilgandan so‘ng “pfx faylni yaratish va davom etish” tugmasi bosiladi.

Registration form on e-imzo.uz. Fields include: Name (Name), Date of birth (Date of birth), ID number (ID number), and Password (Password). A green button at the bottom is labeled "pfx faylni yaratish va davom etish".

Ushbu shaklda kiritilgan kalit parolini esda saqlab qoling.

Shundan so‘ng, tizim kiritilgan ma‘lumotlar asosida elektron so‘rovnoma shakllantiradi. So‘rovnoma bilan batafsil tanishib chiqib, ma‘lumotlar to‘g‘ri kiritilganligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng “So‘rov yuborish” tugmasi bosiladi. Bu bosqichda elektron ariza to‘ldirish yakunlanadi.

Yuborilgan anketa davlat xizmatlari markazi operatori tomonidan 1 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

e-imzo.uz saytida “Arizani qidirish” bo‘limi orqali ariza holatini tekshirish mumkin. ERI sertifikatini berishda ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, murojaat etuvchiga arizada ko‘rsatilgan telefon raqamiga SMS-xabar yuboriladi.

Application submission and confirmation screen on e-imzo.uz. The screen displays the application number 194748 and the applicant's name: XAKBERDIYEV NE'MAT NORMAMATOVICH.

№ ariza	Arizani berdi	Ariza qabul qilindi sana	Ariza kelib tushdi
194748	XAKBERDIYEV NE'MAT NORMAMATOVICH	16-07-2021	

Arizachi “Arizani qidirish” bo‘limiga kirib qabul qilingan elektron sertifikatni tasdiqlashi lozim. “Tasdiqlash” tugmasi bosilgandan so‘ng ERI kaliti beriladi. U orqali barcha interaktiv va davlat xizmatlaridan foydalanish mumkin. Ariza ko‘rib chiqish jarayonida muayyan sabablarga ko‘ra rad etilishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytsak elektron kalit ERI bu jismoniy va yuridik shaxslar ham birdek foydalansa bo‘ladi. Asosiy foydalanuvchi hisobida yuridik shaxslar ko‘z oldimizga kelishi mumkin, sababi davlat idoralari bilan birgalikda davlat xizmatlari bilan ish olib borganligi sababli ular bu ERI dan foydalanish qoidalarini hamda foydalanishni juda yaxshi bilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdurakhmanova, S. A. (2018). Developing Students’ Intellectual Skills at Pedagogical Universities of Uzbekistan Republic based on Multimedia Technologies. *www. auris-verlag. de*.

2. Ilich, M. E. (2022, February). Problems of professional development of future teachers in the field of informatics. In Conference Zone (pp. 193-194).

3. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Methodology for organizing the process of distance education and its teaching. In E Conference World (No. 2, pp. 160-164).

4. Laylo, B., & Malika, D. (2023). Capabilities of scratch for working with animations. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 1118-1120.

5. Bahadir, U. S. (2023, November). Creating a control test in plickers. In E Conference World (No. 2, pp. 107-111).

6. Uroкова, S., & Tuhtashev, U. (2019). Trends of electronic education development. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(12), 768-771.

7. Bakiyeva, Z. R. (2022). Teaching computer animation to students through an electronic learning platform. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 26-28.

8. Бакиева, З. Р., & Мухаммадхўжаев, Б. Б. (2018). Возможности информационно-коммуникационных технологий в формировании личности учащихся.

9. Elmurzaevich, M. O. (2023, November). IMPROVING DIGITAL COMPETENCE USING CLOUD TECHNOLOGIES. In E Conference World (No. 2, pp. 148-153).

10. Mamarajabov Odil Elmurzaevich, Akhmatov Eldor Umar ugli, Creating an electronic textbook on computer science in the autoplay program , E Conference World: No. 2 (2023): Switzerland

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI BOSHQARISH

K.Z.Mamatkarimov

BIMM toyanch doktoranti

@k-beck@mail.ru

Ta'limdagi jarayonlarni boshqarish - bu natijalar va ish jarayonlarini optimallashtirish maqsadida ta'lim muassasalarida asosiy bo'lgan barcha faoliyatga yo'naltirilgan boshqaruv sohasi.

Ta'limdagi jarayonlarni boshqarish - bu davlat, xususiy va davlat muassasalarida o'qitish jarayonlarini boshqarishga qaratilgan jarayonlarni boshqarish sohasi.

U ta'lim faoliyatining asosiy qismini tashkil etuvchi va institutlarning ustunlariga xizmat qiluvchi ko'plab tadbirlar va tashabbuslarni birlashtiradi, ular: pedagogik boshqaruv va ma'muriy boshqaruv.

Texnologiya kundalik muammolarni hal qilish uchun mavjud. Ta'limni boshqarishda texnologiya ta'lim mutaxassislarning ishini oson va tezlashtiradi.

Texnologiya quyidagi yo'llar bilan yordam berishi mumkin: